

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**RESPUBLIKA OLIY TA‘LIM MUASSASALARI REYTINGINI BAHOLASH TIZIMINI
JORIY ETISH TO‘G‘RISIDA**

Respublika oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy hamda pedagogik faoliyati darajasi va sifatini oshirishni, ular tomonidan yuqori, tegishli xalqaro mezonlar va standartlarga, oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilar tarkibining ilmiy salohiyatidan foydalanish ko‘rsatkichlariga erishishni, o‘qitishning hamda iqtisodiyotning real tarmoqlarida talab katta bo‘lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni rag‘batlantirish, shuningdek ta‘lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, tarkibida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralarning 2013-yildan boshlab oliy ta‘lim muassasalari reytingini **ilovaga** muvofiq baholash tizimini joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Respublika oliy ta‘lim muassasalari reytingini tuzish va uni baholash funksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markaziga yuklansin, quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilansin:

oliy o‘quv yurtlarining ilmiy-pedagogik faoliyati darajasi va sifatini xarakterlovchi ma‘lumotlarni tizimli ravishda to‘plash va ma‘lumotlar bazasini shakllantirish, olingan ko‘rsatkichlarni ishlab chiqilgan mezonlarga muvofiq baholash asosida respublika oliy ta‘lim muassasalari reytingini har yili tuzish;

ekspertlar va ish beruvchilardan so‘rovlar natijalari asosida, yetakchi xalqaro reyting tashkilotlarining ilg‘or tajribasini, respublikaning oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish ustuvorliklarini hisobga olgan holda oliy ta‘lim muassasalari reytingini tuzish metodikasini yanada takomillashtirish;

reyting baholari asosida respublikada oliy ta‘limni rivojlantirishning holati to‘g‘risida har yilgi tahliliy axborotni tayyorlash va uni oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish, uning samaradorligini, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash darajasi va sifatini oshirish bo‘yicha aniq takliflar bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

oliy ta‘lim muassasalari reytingi natijalarini har yili 1-martgacha chop etish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.

3. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi:

bir hafta muddatda qo‘shma qaror bilan Oliy ta‘lim muassasalari reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlasinlar;

2013-yilgi respublika oliy ta‘lim muassasalari reytingini baholash yakunlari bo‘yicha ko‘rsatib o‘tilgan Nizomga, uni amaliyotda sinash natijasida to‘plangan tajribani hisobga olgan holda zarur o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritsinlar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2013-yildan boshlab, Davlat budjetining har yilgi parametrlarini shakllantirishda asoslangan hisob-kitoblar bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markaziga oliy ta‘lim muassasalari reytingini tuzish va uni chop etish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur mablag‘lar ajratilishini nazarda tutsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.I.Ikramov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2012-yil 29-dekabr,
371-son

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 29-dekabrda 371-son qaroriga
ILOVA

Oliy ta'lim muassasalari reytingi tuzilmasi*

Reytingni tuzuvchi — Davlat test markazi

Reytingni tuzishning davriyligi — har yili, natijalarini ommaviy axborot vositalarida chop etgan holda

T/r	Ko'rsatkich	Ko'rsatkichning umumiy reytingdagi salmog'i
	Yakuniy reyting shu jumladan:	100%
	I. O'qitish sifati darajasining indeksi	35%
1.1.	Xorijiy oliy ta'lim muassasalari darajasiga (PhD) ega bo'lgan, jahondagi 300 ta eng yaxshi oliy o'quv yurtlari jumlasiga kiradigan professor-o'qituvchilar tarkibi (PO'T) ulushi (umumiy soniga nisbatan % hisobida)	7%
1.2.	O'qitish sifati darajasi (oliy o'quv yurti talabalaridan so'rov natijalari bo'yicha)	7%
1.3.	Yil mobaynida oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari tomonidan nashr etilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari soni (100 nafar PO'T hisobiga)	5%
1.4.	Xorijiy o'qituvchilar va xorijiy talabalar ulushi (tegishli ravishda umumiy soniga nisbatan % hisobida)	4%
1.5.	Xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan almashish dasturlari soni	4%
1.6.	Xorijiy tilda o'qitiladigan ta'lim (mutaxassisliklar) yo'nalishlari bo'yicha soni (umumiy soniga nisbatan % hisobida)	3%
1.7.	PO'Tning xorijiy tillarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish darajasi	3%
1.8.	O'quv jarayonida laboratoriya va yordamchi uskunalardan foydalanish	2%
	II. Talabalar va bitiruvchilar malakasining indeksi	20%
2.1.	Bitiruvchilar malakasini ish beruvchilardan so'rov natijalari bo'yicha baholash	10%
2.2.	Xalqaro va respublika olimpiadalarida va nufuzli tanlovlarda mukofotlar (diplomlar) va sovrinli o'rinlar bilan taqdirlangan talabalar soni	5%
2.3.	O'qishni tugatgandan keyin 6 oy mobaynida mutaxassislik bo'yicha ishga joylashgan bitiruvchilar ulushi	5%
	III. Oliy o'quv yurtining ilmiy salohiyati	
3.1.	Xalqaro indekslar ma'lumotlari bo'yicha oliy o'quv yurtining PO'T tomonidan chop etilgan materiallardan iqtiboslar darajasi	8%
3.2.	Yil mobaynida xorijiy referatsiyalanadigan ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar va intellektual mulk obyektlariga olingan sertifikatlar (patentlar) soni (1 nafar PO'T hisobiga)	7%
3.3.	Oliy o'quv yurti xodimlari tomonidan himoya qilingan doktorlik dissertatsiyalari va chop etilgan monografiyalar soni (100 nafar PO'T hisobiga)	4%
3.4.	Ilmiy-tadqiqot faoliyatidan olingan mablag'lar (1 nafar PO'T hisobiga), shu jumladan:	16%
	xorijiy ilmiy fondlar va tadqiqot markazlarining grantlari va buyurtmalari hisobiga olingan mablag'lar (1 nafar PO'T hisobiga);	7%
	iqtisodiyot tarmoqlari buyurtmalari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlardan, shuningdek davlat grantlari hisobiga olingan mablag'lar (1 nafar PO'T hisobiga)	9%
	IV. Boshqa ko'rsatkichlar	
4.1.	Axborot-resurs markazining o'quv adabiyotlari, shu jumladan elektron kitoblar bilan ta'minlanganligi, elektron resurslardan masofadan foydalanishning mavjudligi (1 nafar talaba va 1 nafar PO'T hisobiga fondlar soni)	4%
4.2.	O'quv jarayonida va ilmiy-tadqiqot ishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish darajasi (kompyuter texnikasi, multimediy uskunasi, Internetdan foydalanish)	3%
4.3.	Internetda oliy o'quv yurti to'g'risidagi axborotdan foydalanish (oliy o'quv yurti veb-saytining sifati, oliy o'quv yurti to'g'risida zarur axborotning chop etilgan maqolalar va materiallarning, foydalanuvchilarning elektron so'rovlari uchun bog'lanish ma'lumotlarining mavjudligi, saytning yangilab borilishi)	2%
4.4.	Oliy o'quv yurtining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi muassasalarida o'quv	1%

	mashg'ulotlarini o'tkazayotgan PO'T soni	
--	--	--

* Izoh: oliy o'quv yurtlari faoliyatini baholash mezonlari oliy ta'limni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 1-son, 10-modda)